

Safarov Tolib Todjiyevich
Buxoro davlat texnika universiteti
ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrası dotsenti
Safarvtolib407@gmail.com
УДК 950(575.1)

XIVA XONLIGIDAGI QULLAR VA ULARNING HAYOTIGA OID AYRIM MULOHAZALAR (Xiva xonligida ijtimoiy tabaqalar)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xiva xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan ishg'ol qilinishi arafasida hamda vassalga aylantirilishi davrida qullar va ularning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni, qullarga nisbatan munosabat, tinch aholi vakillarining qullikka mahkum qilinishi, ularga narx belgilash masalalari, qanday mehnat bilan band bo'lganliklari, hamda rus harbiy tarixchisi A.P.Xoroshxinning Xiva xonligiga amalga oshirgan missiyasi natijasida xonlikdagi qullar to'g'risida umumiy ma'lumotlar to'planganligi, shuningdek, qullarning ozod qilinishi bilan bog'liq masalalar to'g'risida fikr-mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, qul, fors qullari, turkmanlar, qul savdosi, tinch aholi, A.P.Xoroshxin, Matmurod, Muxammad Raximxon II, Gandimiyon shartnomasi.

НЕКОТОРЫЕ РАССУЖДЕНИЯ О РАБАХ И ИХ ЖИЗНИ В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ (Социальные страты в Хивинском ханстве)

Аннотация. В данной статье рассматриваются рабы и их роль в социально-экономической жизни общества накануне оккупации Хивинского ханства Российской империей и в период его превращения в протектората, отношение к рабам, принуждение к рабству представителей мирного населения, вопросы установления им цен, каким трудом они были заняты, а также общие сведения о рабах в ханстве были собраны в результате миссии русского военного историка А.П. Хорошихина в Хивинское ханство, а также обсуждаются вопросы, связанные с освобождением рабов.

Ключевые слова: Хивинское ханство, рабы, персидские рабы, туркмены, работорговля, мирное население, А.П. Хорошихин, Матмурод, Мухаммад Рахимхан II, Гандимиянский договор.

SOME CONSIDERATIONS ABOUT SLAVES IN THE KHIVA KHANATE AND THEIR LIVES (Social strata in the Khiva Khanate)

Abstract. This article discusses the role of slaves in the socio-economic life of society on the eve of the occupation of the Khiva Khanate by the Russian Empire and during its transformation into a vassal, the attitude towards slaves, the condemnation of civilians to slavery, the issues of setting prices for them, what kind of work they were engaged in, as well as the general information about slaves in the Khanate as a result of the mission of the Russian military historian A.P. Khoroshkin to the Khiva Khanate, as well as issues related to the emancipation of slaves.

Key words: Khiva Khanate, slaves, Persian slaves, Turkmens, slave trade, civilian population, A.P. Khoroshkhin, Matmurad, Muhammad Rakhimkhan II, Treaty of Gandimiyan.

Kirish. Qullik insonni inson tomonidan ekspluatatsiya qilishning eng qadimgi shakllaridan biridir. Kishilik jamiyatida qadimdan qul savdosi dunyoning turli mintaqalarida mavjud bo'lib, insonlarni tabiiy erkin yashash huquqlariga zid bo'lgan hamda salbiy oqibatlar keltirib chiqaradigan faoliyat turidir. Biz mulohaza yuritmoqchi bo'lgan maqolamizda Xiva Xonligining

80 Rossiya imperiyasi tomonidan vassalga aylantirilishi arafasida, hamda vassalga aylantirilishi natijasida xonlikdagi qul savdosi va ularning hayoti bilan bog'liq ayrim masalalarni, ayniqsa, xonlik bilan chegaradosh hududlardan bosqinchilik yurishlari natijasida olib kelingan asirlarning qul sifatida sotilganligi, hamda ularga nisbatan ham qul egalari, ham xonlik ma'murlari tomonidan qo'llanilgan munosabatning ayrim jihatlarini yoritishni lozim topdik.

Xiva xonligi hozirgi O'zbekiston va Turkmaniston hududida XVI asr boshlaridan mavjud bo'lgan. U Markaziy Osiyo mintaqasining iqtisodiy, siyosiy va savdo munosabatlarida, ayniqsa 1700-1870-yillar oralig'ida muhim rol o'ynagan. Xiva xonligi xon tomonidan cheklanmagan boshqaruvga ega edi[1]. Qullarga, birinchi navbatda, qo'shni hududlarga bosqinlar paytida qo'lga olingan harbiy asirlar aylangan. Xiva xonligida qullarning asosiy manbalari quyidagilardan tashkil topgan: Turkman qabilalari tomonidan asirga olingan ruslar, qabilalararo urushlar natijasida asirga tushgan forslar, afg'onlar, shuningdek, xonlik boshqaruvida bo'lgan urug'larga dushman hisoblangan boshqa qabilalardan bo'lgan turkmanlar, hamda bosqinchilik yillari bilan pul ishlash uchun asir va garovga olingan tinch aholi. Manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, turli davrlarda qullar soni 20-50 ming kishiga yetgan, bu esa xonlik aholisining katta qismini tashkil etgan[2].

Adabiyotlar tahlili. Manbalarda qullarning ijtimoiy ahvoli to'g'risida ma'lumotlar berilgan bo'lib, ular bir necha toifalarga bo'linganligi, jumladan, zodagonlarga xizmat qilgan uy qullari, qishloq xo'jaligi ishlari bilan, qurilishda va hunarmandchilikda mehnat qilgan ishchi qullar, zodagonlarning haramlarida bo'lgan ayol qul kanizaklar, harbiy qullar, ba'zan xon qo'riqchilari yoki qo'shinlari tarkibiga kirgan qullar, garovga olingan eronlik va boshqa elat vakillari shular jumlasidandir. Qullarning huquqlari nihoyatda cheklangan bo'lib, ularni sotib olish, sotish, sovg'a qilish yoki meros qoldirish, garovga olib ushlash mumkin bo'lgan. Umuman olganda tarixiy manbalarda nafaqat Xiva xonligida, balki Buxoro xonligida ham XVI-XIX asrlarda qullar va ular bilan bog'liq juda ko'plab ma'lumotlar uchraydi [3].

Xoroshxin Aleksandr Pavlovich rus harbiy zobiti, harbiy tarixchi, Turkiston o'lkasi etnografiyasining ilk tadqiqotchilaridan biri sifatida Rossiya imperiyasi tomonidan Xiva xonligi bosib olingandan keyin xon devoni ma'murlari bilan xonlikdagi fors qullarini ozod qilish masalasi muhokama qilinishi munosabati bilan, xivaliklar orqali emas, balki o'sha qullarning o'zlari orqali, chunki ular yuzlab odamlari bilan rus harbiy guruhlariga qo'shilib, o'zlari yashagan joylariga qaytib ketganligi, fors qullarining haqiqiy ahvoli haqida ma'lumot to'plashga kirishganligini bayon qilgan[4].

Tadqiqot usullari. Uning qayd etishicha, mingdan ortiq qulni so'roq qilib, ularning hozirgi yashash joylari, ikki jinsdagi odamlar sonini qayd ettirib, tekshiruvlar o'tkazib, hozirgi vaqtda qanchasi haqiqatan qullikda ekani, qanchasi ozod etilgani va bu ozod qilinganlar yer-suvga egalik qiladimi-yo'qmi, shuningdek, Orenburg harbiy guruhida o'zi va general Veryovkin, yasovul Baumgarten tarjimonlari bilan birga qullarni so'roq qiladi. Turkiston otryadida esa yasovul Kirilov huzurida bo'lib, Kavkaz otryadlaridagi forslar haqida ma'lumotlar to'plab har holda oz bo'lsa-da, devonga podpolkovnik Pojarskiy, praporshik Zaynelbek tomonidan yetkazilgan. Matmurod devonbegi bilan o'tkazilgan uzoq suhbatdan keyin, uning fors qullari haqida mutlaqo ma'lumotga ega emasligi va hatto taxminiy raqam ham ayta olmasligini ma'lum bo'lgan[5]. Holbuki, u avval boshda ularning soni ikki ming nafardan to'rt ming nafargacha bo'lishi mumkinligini aytgan. Shunda unga turkmanlar tomonidan 1863-yilda Marv yaqinida qirq ming nafar tinch aholi b'ylgan forslarni asirga olganliklari eslatilgan. Agar turkmanlar shulardan besh ming qulni o'zlarida qoldirgan bo'lsalar, shu besh ming qulning qanchasi ozod qilingani va qanchasi hanuz qullikda ekani haqida xulosa chiqarish mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotlar A.P.Xoroshxin tomonidan tahlil qilingan[6].

Tadqiqot natijalari. Matmurod shuningdek, qullarning ahvoli haqida ham so'zlab bergan. Uning aytishicha, ularning ko'p qismi xorazmliklar xizmatida bo'lib, xo'jalik ishlari, yer sug'orish va turli og'ir mehnat bilan faoliyat yuritadi. Ba'zilar esa xon va amaldorlar ixtiyorida bo'lib, uy xizmatlarida, qo'riqchilik yoki boshqa turli ishlarda ishlatilgan. Shu bilan birga, ayrim qullar vaqt o'tishi bilan ozod qilinib, yerga egalik qilish huquqiga ega bo'lgan. Lekin ularning ko'pchiligi hanuzgacha qul sifatida turli sohalarida ishlatilmoqda edi. Ma'lumotlarning ishonchli bo'lishi uchun, turli otryadlardagi manbalardan yig'ilgan so'rovlar bir-biriga taqqoslangan va shu tariqa Xiva xonligidagi fors qullarining ahvoli haqida umumiy tasavvur hosil qilingan[7]. Qochib ketgan

yoki halok bo'lganlari besh ming nafar, o'ldirilgan va o'lganlari besh ming nafar, Buxoroga sotilganlari besh ming nafar bo'lsa, unda Xiva hissasi o'n ming qul to'g'ri kelgan, faqat 1863-yilda asirga olinganlardan hisoblab, undan oldingi yillarda keltirilganlarni hisobga olinmasligi qayd etilgan. Shunda Matmurod javob bergan: Ha, bizda juda ko'p qullar bor, lekin biz ularni sanamaymiz va hatto o'zimizda qancha qul borligini ham bilmayman. Shaharlik forslardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, Matmurodning o'zida 150 nafar qul bo'lgan. U, shuningdek, xonning qullari soni haqidagi savolga ham noaniq javob qaytargan[8].

Muhokama natijalari. A.P.Xoroshxinning ta'kidlashiga ko'ra, fors qullaridan to'plangan raqamlarni butunlay ishonchli deb hisoblamasada, ularning ma'lumotlari juda ham noto'g'ri emasligini qayd qiladi. Uning xulosa qilishicha, qanday bo'lmasin, aniq statistik ma'lumotlarga ega bo'lgunga qadar, shu ma'lumotlarga qanoat qilishga to'g'ri keladi. Chunki xonlik hukumati ham fors qullari haqida hech qanday ma'lumot bermagan. Xon, devon majlislaridan birida, ayniqsa ta'kidlab, shunday degan edi: Fors qullari soni haqidagi raqamni men ham bilmayman, chunki hech kim ularni sanamagan, har bir qul egasi o'z qullarining mutlaq va bahssiz hukmdori hisoblanadi. Qullar Xivaga turkmanlar tomonidan Marv orqali ham, Yavmut va Chodir turkmanlari orqali ham Urganj yo'li bilan olib kelingan. Xivalik savdogarlar esa Marvga o'zlarini borib, turkman ko'chmanchilaridan qul sotib olganlar[9]. Xiva xonligida qul savdosiga rasman ruxsat berilganligi uchun qul savdosi va qul bozorlari, ayniqsa, poytaxtda doimiy ravishda faoliyat ko'rsatgan. Qullar nafaqat xonlik ichida, balki uning tashqarisida ham faol sotilgan. Asosiy xaridorlar buxorolik, fors va afg'on savdogarlari bo'lgan. Asosiy bozorlar esa shaharlarda joylashgan: Xiva, Ko'hna-Urganch, Ko'ng'iroq, Chimboy, Xo'jayli, Xonqa va boshqalar. Shuningdek, Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan Shuraxon va Shoh Abbosvali bozorlarida ham turkmanlar qullarni olib kelib, o'zlarining ifodasi bilan aytganda, "qo'y kabi" sotishgan[10].

Ko'pincha bir kunda bozorga ikki yuz va undan ko'proq qul keltirilgan. Qullar savdosi ham yakka holda, ham ulgurji holatida amalga oshirilgan. Bir necha kun ichida Amudaryoning o'ng sohiliga turkmanlar 200–300 qul olib kelishgan. Lekin, ba'zan notinchliklar sababli xaridorlar topilmay, barcha qullar yana sahroga qaytarib yuborilardi. Matmurod devonbeganing aytishicha, qullarning narxi turli-tuman bo'lib, bu ham talab va Turkmanistondan kelgan asirlar soniga bog'liq bo'lgan. Bundan tashqari, narx qulning yoshi va jinsiga, shuningdek, ularning jismoniy holatiga ham bog'liq edi. Umuman olganda, baquvvat, sog'lom erkak, jismoniy nuqsonsiz, 100 tildan (mayda tillolardan) qimmatga sotilmagan. Yosh ayol, ayniqsa qiz bo'lsa, 300 tildan ortiqqa baholanmagan. Shuningdek, qizning bahosiga yaqin narxda bola-chaqalar ham sotilgan. Masalan, Matmurodning o'z quli bo'lgan bir bola 250 tildan qimmat baholangan[11].

Qullarning so'zlariga ko'ra, ular orasidan shundaylari ham borki, qullikka ellik yildan beri tushib qolgan va shu vaqt mobaynida barcha harakatlariga qaramay ozodlikka erisha olmagan. Qullar ozodlikka chiqishi uchun uzoq va sadoqatli xizmat qilishi lozim bo'lgan, yoki ellik tildan uch yuz tillo miqdorida to'lov qilishga majbur bo'lgan. Ozod qilingan qullar "azat" deb atalgan, agar ular xon tomonidan ozod etilgan bo'lsa, "xon-azat" deyilgan[12]. Masalan, Xivada xon qo'shinidagi otlar xususiy shaxs qo'liga o'tganda ham "azat" otlar deb atalgani kabi. Xon-azatlar, oddiy azatlarga nisbatan, har doim yaxshiroq holatda bo'lgan. Ularning ko'plari xizmatda qolib xonga xizmat qilishda davom etgan. Masalan, xonning namozgohida yig'ilish bo'lganida, xon-azatlardan bir necha kishi xizmatda bo'lgan. Ko'pincha ozod qilingan qullar yer ishida yollanib ishlar va ularga yiliga 10–30 tillo to'langan. Deyarli barcha ozod qilingan qullar juda ham kambag'al bo'lgan. Biroq ularning ayrimlari xonlikdagi erkin aholidan qarzga botgan bo'lib, bu qarzlarni ularning so'zlariga ko'ra, hech qachon qaytarilmagan[13].

Qullarning ona yurtiga qaytishi doimo qiyin bo'lgan, chunki qulni ozod qilish qimmatga tushgan. Qochib qutulishga uringanlar esa yana turkmanlar qo'liga qaytib tushish xavfiga duchor bo'lgan va bu hol ko'p marta takrorlanar edi. Biroq shundaylari ham bo'lganki, ular turkman sahrasidan Marv orqali butun yo'lni yurib o'tib, hatto Eron chegarasigacha yetib borishgan[14]. Juda kam qullar o'z vatanlariga qaytish uchun mablag' topa olgan, agar topsa ham, bu holatda unga yordam beruvchilar deyarli topilmagan. Ba'zi qullar asirlikka bir necha bor tushganlar. Bir yosh eronlik yigitning hikoyasiga ko'ra, uni Toshkentda general Chernyayev ozod qilgan ekan, u yaqinda Jizzaxga, Orenburg, Samara, Astraxan va Astrabod yo'nalishi orqali o'z vatani

82 Mashhadga qaytgan. Ammo u yerda ikki yil yashagandan keyin yana turkmanlarga asir tushib, sahroda qo'ylar podasi bilan olib ketilgan[15].

Ozod qilingan asirlarning ma'lumotiga ko'ra, Turkiston va Orenburg otryadlari asirlarini hisobga olganda, xonlikning 140 ta shahar va qishloqlarida 36.806 kishi qullikda bo'lgan. Shundan to'g'ridan to'g'ri qullar 29.291 kishidan iborat bo'lgan[16]. Xon va ularning avlodlari ozod qilgan qullar esa 6515 kishini tashkil qilgan. Bu qullar ozod etilgandan so'ng, hozirgi xon va uning oldingi hamkorlari hisobidan 2634 tanob (ekin maydonini o'lchash uchun qo'llangan yuza birligi. 1 T. 60x60 kv. gaz =3600 kv. gaz =0,08194 ga=900 kv. m (1 ga=12 tanob) yer va 3 tanob bog' bilan ta'minlangan. Shu tariqa, har bir ozod etilgan asirga ozroqdan 1/3 tanob yer to'g'ri kelib, bu esa tirikchilik uchun yetarli bo'lmagan. Shu sababli ko'p qullar umuman yer bilan ta'minlanmagan. Ba'zi ozod bo'lgan qullarga yer berilmaganligini tartibsizlik hamda o'g'rilik holatlari ko'payganligi bilan izohlashga harakat qilingan[17].

Xon tomonidan chiqarilgan farmonga qaramasdan, ba'zi qul egalari o'z qullarni ozodlikka chiqarmaganlar. Ayrimlari, aytilganidek, qullarini sahroga olib ketib, o'ldirib tashlashgan. Masalan, Xonqada 2500 nafar qul borligi aytiladi. Sarg'olda 100 nafar qul, Oq-masjidda 25 nafar, Tegenda 45 nafar qul bor edi. Kunduzi ularni dala ishlariga olib chiqishar, kechasi esa qulflab, zanjirlab qo'yishar edi, ruslarga qochib ketmasliklari uchun. Ruhan singan va ezilgan ba'zi asirlar haqiqatan ham ishchi hayvonga o'xshar edi, faqat tashqi ko'rinishidagina odamni eslatar edi, xolos[18].

Xulosa. Yuqorida bayon qilingan fikrlarga muxtasar xulosa qiladigan bo'lsak, Xiva xonligida qul savdosi bir necha yuz yillar davomida mavjud bo'lib, o'n minglab kishilarni qamrab olgan. Qulchilikning tugatilishi ham Rossiya imperiyasining tashqi bosimi, ham ichki siyosiy o'zgarishlar natijasi edi. 1873-yil 12-avgustda Rossiya imperiyasi va Xiva xonligi o'rtasida Gandimiyon tinchlik shartnomasi imzolani, qulchilik va qul savdosi taqiqlandi[19]. Mazkur tinchlik shartnomasidan keyin Xon Muhammad Rahimxon II farmoni qabul qilinib unda jumladan: "Men, Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon, rus imperatoriga bo'lgan chuqur hurmatim tufayli, barcha fuqarolarimga xonligimning barcha qullariga to'liq erkinlik berishni buyuraman. Bu insonparvarlik ishi butun shonli xalqimning ulug' rus xalqiga bo'lgan abadiy do'stligi va hurmatining garovi bo'lib xizmat qilsin", mazmunidagi fikrlar bayon kilingan. Qabul qilingan farmondan keyin bir vaqtning o'zida Xiva xonligida 40 mingga yaqin qul ozod qilingan. A.P.Xoroshxinning amalga oshirgan missiyasi natijasida 30 mingdan ortiq qullar, jumladan, ruslar, forslar, turkmanlar ozod qilingan[20]. 1873-yildan keyin Rossiya hukumati ma'murlari tomonidan Xiva xonligida qulchilik rasman taqiqlandi, ammo u XX asr boshlarigacha yashirin shaklda saqlanib qolgan. Qulchilik va u bilan bog'lik har qanday noqonuniy faoliyat 1920-yilda Sovet hokimiyati o'rnatilib, Xiva xonligi tugatilgandan so'ng uzil-kesil nihoyasiga yetdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Азимжанов С. С. История рабства в Средней Азии. Академия наук Узбекистана. – Ташкент. 2005. – 230 с.
2. Арапов Ю. Г. Средняя Азия в системе международных отношений XIX века. Наука. – Москва. – 245 с.
3. Полевой Н. А. Хивинский поход генерала Кауфмана. – Санкт-Петербург. 1874. – 174 с.
4. Хива. // Брокгауз и Ефрон. Энциклопедический словарь. – СПб., 1890–1907.
5. Хорошхинъ А.П. Народы Средней Азии. (Историко-этнографические этюды). – СПб., Турк. Сборник. Т. 95; 1873. – 303-390 с.
6. Fayziyev T. Vuxoro xonligida qul savdosi. – Toshkent. "O'zbekiston" 1970. – 57 b.
7. Гендемианский мир 1873 года, договор, регулировавший отношения Российской империи и Хивинского ханства в 1873-1917 годах. Подписан 12 августа 1873 года в саду Гендемиан между хивинским ханом Мухаммедом Рахимом II и туркестанским генерал-губернатором К.П.Кауфманом.